DUNYO TILSHUNOSLIGIDA TERMINOLOGIK MAYDON TUSHUNCHASI VA INSON RUHIY HOLATIGA OID TIBBIY TERMINLARNING TIZIMLI TAHLILI

Mirzayeva Irodaxon Xamdamovna
Turonuniversiteti Andijon filiali Pedagogik va tillar kafedrasi
Farg‘ona davlat universiteti tadqiqodchisi
https://orcid.org/0009-0005-7435-8026

Annotatsiya
Ushbu maqolada dunyo tilshunosligida "terminologik maydon" tushunchasining nazariy-metodologik asoslari va uning semantik maydon nazariyasi bilan bog‘liqligi tadqiq etilgan. Inson ruhiy holatiga oid ingliz va o‘zbek tillaridagi tibbiy-psixiatrik terminlarning shakllanish manbalari, morfologik tuzilishi hamda lingvokulturologik xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida xalqaro terminologiyani standartlashtirish muammolari, lingvistik konseptuallashtirish farqlari va o‘zbek tilida tibbiy terminlar ekvivalentligini ta’minlash masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *terminologik maydon, semantik maydon, psixiatriya, ruhiy holat terminlari, morfologik tarkib, lingvokulturologiya, ekvivalentlik, kognitiv tilshunoslik.*

KIRISH

Dunyo tilshunosligida atamalarni alohida, yakka holdagi leksik birlik sifatida emas, balki muayyan soha doirasida o‘zaro semantik, strukturaviy va funksional munosabatga kirishuvchi birliklar tizimi sifatida o‘rganish muhim nazariy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Soha rivojlangani sari tilshunoslikda “terminologik maydon” tushunchasi atamalarning semantik va kognitiv jihatdan tartiblangan, muayyan ilmiy yoki soha doirasida o‘zaro bog‘langan tizimi sifatida qaraladi (Apresyan, 2009).

Oxirgi o‘n yilliklarda soha terminologiyasi mamlakatimiz va xorijiy tilshunoslikda o‘ziga xos o‘rinni egallab kelmoqda. Bu fan va texnikaning jadallik bilan rivojlanishi, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnik axborot hajmining ortishi natijasida terminologik leksikaning tobora kengayishiga sabab bo‘lmoqda. Natijada turli sohalardagi leksik birliklarni ilmiy jihatdan o‘rganish ehtiyoji ortib borishiga turtki bo‘ladi.Terminologiyaning tilshunoslikdagi o‘rganish obyekti, avvalo, o‘ziga xos so‘z birikmalarini tashkil etuvchi atamalardir (Danilenko, 1977). Terminlar o‘z ichiga faqat so‘zlar emas, balki atamalarni ifodalovchi tushunchalarni ham oladi. Bu atamalar faqat so‘zlar emas, balki umumiy madaniyat, ilm-fan, texnika, tibbiyot, iqtisodiyot, sport sohalarida ham mavjud bo‘ladi (Abramova, 2003). Terminologiya har bir tilda o‘ziga xos ahamiyatga ega. U muayyan ilmiy soha, sanoat yoki madaniyat yo‘nalishi bilan bog‘liq bo‘lgan terminlar tizimidan iborat. Bu atamalar nafaqat ilm-fan va texnologiyaning rivojlanishiga, balki tilning rivojlanishiga ham yordam beradi. Har bir sohada paydo bo‘lgan yangi tushunchalar terminlar sifatida tilga kirishi natijasida, ular tilning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Shu bois, atamalarni o‘rganish va ulardan foydalanish nafaqat lingvistlar, balki har bir mutaxassis uchun muhim vazifa sifatida qolmoqda. Tilshunoslar ushbu termin bobida ko‘plab qiziqarli nazariy g‘oyalarni taqdim etganlar. Shak-shubhasiz, har bir atama o‘z davrining bilim va tafakkur darajasini

ifodalaydigan lug‘aviy imkoniyat sifatida muhimdir. Terminologiya va terminlarning tilshunoslikdagi o‘rganilishi bu fanlarning taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Bu soha ilmiy va texnik jarayonlarning til orqali aniq va to‘g‘ri ifodalanishini ta’minlaydi. Terminologiyaning o‘rganilishi nafaqat tilshunoslik, balki boshqa ilmiy sohalar uchun ham katta ahamiyatga ega.

Dunyo tilshunosligida terminologik maydon tushunchasi til tizimidagi terminlarning o‘zaro mazmuniy, mantiqiy va tizimli bog‘liqligini ifodalovchi nazariy konsepsiya sifatida qaraladi. Bu tushuncha umumiy semantik maydon nazariyasi asosida shakllangan bo‘lib, XX asr boshlarida nemis tilshunosi J. Trier qarashlari bilan bevosita bog‘liqdir. J. Trier til lug‘at boyligini “maydonlar” ko‘rinishida tasavvur qilib, so‘zlar ma’nosi alohida emas, balki boshqa birliklar bilan o‘zaro munosabatda ochilishini ta’kidlagan. Uning fikricha, har qanday leksik birlik ma’lum semantik tizim tarkibida o‘z o‘rniga ega bo‘ladi va shu tizimdan tashqarida to‘liq anglanmaydi (Apresyan, 2009). Bu g‘oya keyinchalik terminologiyaga tatbiq etilib, ilmiy terminlar ham muayyan fan doirasida o‘zaro bog‘langan holda mavjud bo‘lishi isbotlandi.

Terminologik maydon deganda ma’lum bir fan yoki kasb sohasiga oid tushunchalarni ifodalovchi terminlarning mazmuniy yaqinlik, iyerarxik munosabat va funksional aloqadorlik asosida birlashgan tizimi tushuniladi. Masalan, tilshunoslik terminologik maydoni fonetika, morfologiya, sintaksis kabi kichik maydonlarga ajraladi va ularning har biri ichida giperonim-giponim (masalan, “so‘z turkumi” – “ot”, “sifat”), qism–butun, tur–jins kabi mantiqiy munosabatlar mavjud bo‘ladi. Shu jihatdan terminologik maydon oddiy leksik-semantik maydondan farq qiladi, chunki u ilmiy tushunchalarning qat’iy mantiqiy tasnifiga asoslanadi.

Rus terminologiya maktabida ham terminologik maydon nazariyasi keng rivojlantirildi. Xususan, V. P. Danilenko terminlarni tartibga solish, standartlashtirish va tizimlashtirish tamoyillarini tadqiq etib, terminologiyani ilmiy asosda qurilgan konseptual sistema sifatida talqin etdi (Danilenko, 1977). Uning qarashlariga ko‘ra, termin bir ma’nolilik, aniqlik va qisqalik talablariga javob berishi, eng muhimi, muayyan tushunchalar tizimidagi o‘rniga ega bo‘lishi lozim. Zamonaviy tadqiqotlarda esa terminologik maydon kognitiv yondashuv asosida izohlanib, inson tafakkuridagi konseptual strukturalar bilan bog‘lanadi. Bu yo‘nalishda terminlar faqat til birligi emas, balki bilimni tizimlashtiruvchi vosita sifatida qaraladi.

Xalqaro miqyosda terminologik tizimlarni tartibga solish va standartlashtirish bilan Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) shug‘ullanadi. Mazkur tashkilot tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro standartlar terminologik ishlarning metodologik asoslarini belgilab beradi. Ushbu hujjatlarda terminologik maydon tushunchasi bevosita atama sifatida qo‘llanmasa-da, undagi konseptual tizim va tushunchalar ierarxiyasi haqidagi qoidalar aynan terminologik maydon nazariyasiga mos keladi. Dunyo tilshunosligida terminologik maydon tushunchasi semantik maydon nazariyasidan kelib chiqqan bo‘lib, terminlarni tizimli, ierarxik va konseptual birlik sifatida o‘rganishga xizmat qiladi. U nafaqat nazariy tilshunoslikda, balki ilmiy-texnik tarjima, lug‘atchilik, standartlashtirish va sun’iy intellekt tizimlarida ham muhim metodologik asos vazifasini bajaradi.

Psixiatriya terminologik maydoni misolida tizim tahlili

Terminologik maydon – bu biror sohaga oid terminlarning ma’no jihatdan uyg‘un, tushuncha jihatdan uzviy bog‘langan, ierarxik va paradigmatik munosabatlarda turgan tizimidir. Misol uchun, “psixiatriya” sohasida quyidagi terminlar bir terminologik maydon hosil qiladi: *depressiya, nevroz, shizofreniya, fobiya, bopolyar buzilish, psixoz, manik-depressiv holat* (American Psychiatric Association, 2022). Bu terminlar o‘zaro antonimiya, giponimiya, ko-hyponimiya (bir darajadagi bo‘linmalar), sabab-oqibat va funksional munosabatlar bilan bog‘langan.

Terminologik maydonning asosiy xususiyatlarini quyidagicha guruhlash mumkin:

- **Kognitiv asoslanganlik** – maydon ichidagi terminlar inson tafakkurida umumiy konsept doirasida joylashadi.
- **Tizimlilik** – terminlar bir-birini to‘ldiradi va semantik jihatdan mustahkam tizimni tashkil qiladi.
- **Ierarxik tuzilma** – umumiy generik termin va unga kiruvchi maxsus spetsifik terminlar o‘zaro farqlanadi.
- **Soha doiraligi** – har bir terminologik maydon faqat o‘z sohasiga xos bo‘lgan terminlar bilan cheklanadi.

Ingliz va o‘zbek tillarida terminologik maydonlar ba’zan bir-biriga to‘liq mos kelmasligi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi *“anxiety”* so‘zining o‘zbek tilidagi ekvivalenti *“xavotir”* so‘zidan semantik jihatdan kengroqdir, chunki u nafaqat oddiy tashvish holatini, balki klinik sindromni ham bildiradi (American Psychiatric Association, 2022). Bu farqlar qiyosiy tahlil va tarjimada aniqlik kiritishni talab etadi.Terminologik maydon tushunchasi terminlarni faqat individual birlik sifatida emas, balki ularning tizimli, konseptual va madaniy kontekstda qanday ishlatilishini aniqlashda muhim vositadir. Bu yondashuv zamonaviy lingvokognitiv tahlillar va tarjima nazariyasi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ingliz va o‘zbek tillarida inson ruhiy holatiga oid tibbiy terminlarning shakllanishi va morfologik tarkibi mavzusi tilshunoslik, tibbiyot va terminologiya sohalarining kesishgan nuqtasida joylashgan bo‘lib, unda ikki tilning terminologik tizimi qiyosiy tahlil qilinadi.

Ingliz va o‘zbek tillarida ruhiy holat terminlarining strukturaviy shakllanishi

Ingliz va o‘zbek tillarida inson ruhiy holatiga oid tibbiy atamalarning shakllanish manbalari va morfologik tuzilishi turlicha tizimli qonuniyatlarga ega:

1. Terminlarning shakllanish manbalari:

- **Ingliz tilida:** Ruhiy holatga oid tibbiy atamalar asosan yunoncha va lotincha ildizlardan kelib chiqadi. Bu tillarda terminlar asosan ilmiy va professional doiralarda shakllangan. Masalan: *psychology* (psycho – “ruh”, logy – “fan”) (Oxford University Press, 2024); *neurosis* (neuron – “nerv”, osis – “kasallik, holat”). Shuningdek, sintaktik usulda birikmalar hosil qilish (*mental health, bipolar disorder*) va qisqartmalar (*PTSD – Post-Traumatic Stress Disorder*) faol qo‘llanadi.
- **O‘zbek tilida:** Tibbiy terminologiya ko‘pincha arab, fors va rus tillaridan o‘zlashgan so‘zlar qatlamiga tayanadi. Masalan: *ruhiyat, shizofreniya* (Madvaliyev, 2006–2008). O‘zbek tilining o‘z ichki morfologik imkoniyatlaridan foydalangan holda

ruhiy buzilish, asabiy holat kabi sintaktik birikmalar yasaladi. Rus tili vositachiligida kirgan yoki kalka qilingan *depressiya, nevroz* kabi birliklar ham salmoqli o‘rin tutadi (Abramova, 2003).

2. Morfologik tarkibi va yasalish usullari:

- **Ingliz tilida:** Affiksatsiya usuli o‘ta faol bo‘lib, prefikslar (*dysfunction, hyperactivity*) va suffikslar (*-ism, -pathy*) orqali murakkab terminlar hosil qilinadi. Kompozitsiya usuli bilan *neuropsychology, psychopharmacology* kabi ko‘p komponentli tuzilmalar yasaladi. Konversiya hodisasi ham muayyan o‘rin tutadi: *stress* (zo‘riqish – ot) va *to stress* (zo‘riqmoq – fe’l).
- **O‘zbek tilida:** Ruhiy holatni ifodalovchi terminlar asosan sodda asalli o‘zak so‘zlarga milliy affikslar qo‘shish (suffiksal usul) orqali yasaladi: -lik (*g‘amginlik, xavotirlik*), -ish (*siqilish, asabiylashish*). Biroq ingliz tiliga nisbatan prefiks va suffikslar kamroq qo‘llanilib, terminlar asosan ko‘p komponentli so‘z birikmalari (sintaktik usul: *ruhiy o‘zgarish, aqliy kasallik*) yoki izohlash orqali hosil qilinadi (Danilenko, 1977).

4. Qiyosiy-semantik tahlil va konseptuallashtirish muammolari

Tadqiq etilayotgan soha doirasidagi lingvistik tafovutlar, muammolar va ularning tizimli yechimlarini quyidagi jadval ko‘rinishida umumlashtirish mumkin:

Tahlil mezonlari	**Ingliz tili terminologik tizimi**	**O‘zbek tili terminologik tizimi**
Asosiy manbalar	Yunon va lotin tillari ildizlari, xalqaro xarakter (Oxford University Press, 2024).	Arab, fors, rus tillari qatlami va tub milliy asoslar (Madvaliyev, 2006–2008).
Yasalish yetakchi usuli	Affiksatsiya (prefiks + suffiks) va kompozitsiya faol (monoleksik birliklar).	Sintaktik usul (so‘z birikmalari, izohli shakllar) ustuvor (polileksik birliklar).
Semantik zichlik va ko‘lam	Terminlar qisqa, aniq va xalqaro miqyosda universal xarakterga ega.	Terminlar ko‘p hollarda tasviriy bo‘lib, milliy-madaniy xususiyatlarni aks ettiradi.
Konseptual asos	Obyektiv neyrobiologik va klinik jarayonlarga tayanadi (*hyperactivity*).	Ichki kechinmalar, falsafiy va ijtimoiy-madaniy tushunchalarga tayanadi (*asab*).
Mavjud muammolar	Ayrim holatlarda psixometrik o‘lchov terminlarining o‘ta tor ixtisoslashuvi.	To‘g‘ridan-to‘g‘ri leksik muqobilning (ekvivalentning) yo‘qligi, noto‘g‘ri tarjimalar.
Tizimli yechimlar	Xalqaro nomenklaturalarni yangilab borish (DSM-5-TR, 2022).	Tilshunos va shifokorlar hamkorligi, yangi so‘z yasash

		standartlari, ISO qoidalarini qo‘llash.

Ba’zan bir termin ikki tilda turlicha semantik yuklama berishi mumkin. Masalan, *stress* – ingliz tilida keng ma’noga ega bo‘lsa, o‘zbek tilida ko‘proq faqat salbiy ruhiy holatni anglatadi (American Psychiatric Association, 2022). Shuningdek, so‘zning qaysi kontekstlarda ishlatilishi mumkinligini belgilovchi "takt maydoni" ham har ikki tilda turlicha shakllanadi (Apresyan, 2009).

5. "Emotion" konseptining psixolingvistik va lingvokulturologik tahlili

Ruhiy holat terminlarining tarjimasi matnning emotsional ta’sirini to‘g‘ri yetkazishda muhim rol o‘ynaydi. *“Emotion”* (*“emotsiya”*) so‘zini lingvokulturologik nuqtayi nazardan tahlil qilsak, agar *“emotion”* yoki *“sensation”* kabi so‘zlar tahliliy vosita sifatida shunchaki qabul qilinsa va ularning ingliz tiliga xos xususiyati inobatga olinmasa, ular aslida turlicha konseptuallashtirilishi va tasniflanishi mumkin bo‘lgan o‘zgaruvchan hodisalarni “qotib qolgan” obyektiv birlik sifatida ko‘rsatishi mumkin.

“The psychology of emotion”, *“psychobiological theory of emotion”* yoki *“operational definition of emotion”* kabi iboralar *“emotion”* tabiatning o‘zi tomonidan chegaralangan, mustaqil va muxtor mavjud kategoriya degan taassurot uyg‘otadi (Apresyan, 2009). Go‘yoki *“emotion”* tushunchasi borliqni tabiiy bo‘linmalar asosida ajrayotgandek tuyuladi. Biroq ingliz tiliga madaniy va genetik jihatdan yaqin bo‘lgan tillarning o‘zi ham inson tajribasini turlicha konseptuallashtirish va tasniflash mumkinligini ko‘rsatadi.

Masalan, oddiy nemis tilida *“emotion”* so‘zining to‘g‘ridan-to‘g‘ri funksional muqobili mavjud emas. Odatda inglizcha *“emotion”* so‘zining tarjimasi sifatida ishlatiladigan *“Gefühl”* (*fühlen* – “his qilmoq”) ruhiy va jismoniy hislar o‘rtasida keskin farq qilmaydi. Hozirgi ilmiy nemis tilida esa ingliz tilidan o‘zlashtirilgan *“Emotion”* so‘zi tobora ko‘proq qo‘llanmoqda, eski akademik nemis tilida esa *“Gemütsbewegung”* (“ruh harakati”) birikmasi ishlatilgan. Shunga o‘xshash holat rus tilida ham mavjud. Rus tilida inglizcha *“emotion”*ga to‘liq mos keladigan yagona so‘z yo‘q. *“Чувство”* (chuvstvo, “his”) so‘zi *“feeling”* ma’nosiga yaqin bo‘lib, ko‘plik shakli (*чувства*) esa ko‘proq kognitiv asosga ega murakkab hislarni anglatadi.

Yevropaga xos bo‘lmagan misol sifatida samaoan tilida ham inglizcha *“emotion”* tushunchasiga mos keladigan alohida lingvistik so‘z yo‘q; u yerda butunlay “his qilish” (*feel*) tushunchasiga tayaniladi. Fransuz tilidagi *“sentiment”* so‘zi (ruscha *“чувство”* va nemischa *“Gefühl”*dan farqli ravishda) faqat ikki elementni – intellektual his va fikrni – o‘z ichiga oladi. Shuning uchun rus tilida *“чувство стыда”* (“uyat hissi”) va *“чувство голода”* (“ochlik hissi”), nemis tilida esa *“Schamgefühl”* va *“Hungergefühl”* deyish grammatik jihatdan to‘g‘ri keladi. Ammo ingliz tilida *“emotion of hunger”* yoki *“emotion of one’s own worth”* kabi birikmalar aslo qo‘llanmaydi, chunki bunday holatlarda tana jarayonlari bilan bog‘liq emotsional o‘zgarish emas, balki somatik yoki individual mental holat nazarda tutiladi (Oxford University Press, 2024).

Psiholingvistik nuqtai nazardan qaralganda, bu masala inson nimanidir his qilganda tanasida nima sodir bo‘lishi, bu holatni qanday so‘zlar bilan ifodalashi, o‘z his-tuyg‘usini to‘liq anglay olishi va uni boshqalar uchun aniq nomlay (identifikatsiya qila)

olishi bilan bog‘liqdir. Insonning his-tuyg‘ularni talqin qilishi uning jamiyatdagi “nima his qilishi kerakligi” haqidagi ijtimoiy-madaniy tasavvurlariga bog‘liqdir. Jamiyatda “yaxshi” yoki “yomon” deb baholangan sotsial hislar bilan ularning bog‘liqligi bevosita til orqali modellashtiriladi. *“Emotion”* atamasi atrofidagi chalkashlikni shundan ko‘rish mumkinki, ayrim olimlar emotsiyalarni kognitiv asosga ega emas deb ta’kidlashsa-da, amalda faqat tafakkur bilan bog‘liq hislarni “emotsiya” deb ataydilar. Masalan, Kerrol Izard emotsiya tarkibida kognitiv komponent (tafakkur) mutlaqo mavjud emasligini aytadi va uni faqat neyrokimyoviy jarayonlardan kelib chiqadigan sof biologik his sifatida talqin qiladi. Biroq u o‘z tadqiqotlarida *“uyat”, “g‘azab”, “qayg‘u”* kabi ijtimoiy va intellektual hislarni emotsiya sifatida keltirsa-da, sotsial bo‘lmagan *“og‘riq”, “ochlik”, “chanqoq”* yoki *“qichishish”* kabi hodisalarni emotsiya deb hisoblamaydi. Demak, amaliy tahlilda u ham beixtiyor tafakkur va ijtimoiy ong bilan bog‘liq hislarni sof jismoniy (somatik) hislardan ajratadi. Nazariy jihatdan kognitiv asos inkor etilsa-da, lisoniy va konseptual maydonda ruhiyat terminlari hamisha inson tafakkuri hamda madaniy kontekst bilan uzviy bog‘liq bo‘lib qolaveradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, dunyo tilshunosligida terminologik maydon nazariyasining shakllanishi va rivojlanishi terminlarni tizimli lug‘aviy birliklar sifatida o‘rganishda yangi ufq ochdi. J. Trier asos solgan va keyinchalik rus hamda o‘zbek tilshunosligida chuqurlashtirilgan ushbu kognitiv-semantik yondashuv terminlarning tarqoq emas, balki qat’iy ierarxik tizimda mavjudligini isbotladi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi inson ruhiy holatiga oid tibbiy terminlarning shakllanishi va morfologik tarkibini tahlil qilish, har ikki tilning o‘ziga xos ichki imkoniyatlarini ko‘rsatib beradi. Ingliz tili asosan yunon-lotin elementlari hamda affiksatsiya hisobiga xalqaro standartlashgan terminologiyani yaratsa, o‘zbek tili tarixiy o‘zlashmalar va sintaktik birikmalar yordamida o‘z terminologik maydonini shakllantirmoqda. Ushbu maydonni tizimli tadqiq etish nafaqat nazariy tilshunoslik, balki amaliy tibbiyot, ilmiy-texnik tarjima hamda ikki tilli terminologik lug‘atlarni mukammallashtirish uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

REFERENCES

Abramova, G. A. (2003). *Meditsinskaya leksika: osnovnye svoystva i tendentsii razvitiya* [Medical vocabulary: Main properties and development trends]. Moscow.

Apresyan, Yu. D. (2009). *Issledovaniya po semantike i leksikografii* [Studies in semantics and lexicography]. Yazyki Slavyanskikh Kultur.

American Psychiatric Association. (2022). *Diagnostic and statistical manual of mental disorders* (5th ed., text rev.). doi.org

Danilenko, V. P. (1977). *Russkaya terminologiya: Opyt lingvisticheskogo opisaniya* [Russian terminology: An experience of linguistic description]. Nauka.

Madvaliyev, A. (Ed.). (2006–2008). *O‘zbek tilining izohli lug‘ati* (Vols. 1–5). O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.

Oxford University Press. (2024). *Oxford English Dictionary*. oed.com